

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.28/30.07.2024.Ped.165.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI**

XAMIDOV AKMAL AMRULLOYEVICH

**GENDER YONDASHUV ASOSIDA O‘SMIR YOSHDAGI
O‘QUVCHILARNING O‘Z-O‘ZINI ADEKVAT BAHOLASH
KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xamidov Akmal Amrulloevich

Gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarning o'z-o'zini
adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirish 3

Хамидов Акмал Амруллоевич

Развитие навыков адекватной самооценки у подростков на основе
гендерного подхода 27

Khamidov Akmal Amrulloevich

Developing adolescents' skills of adequate self-assessment based on a gender
approach 51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 55

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.28/30.07.2024.Ped.165.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI**

XAMIDOV AKMAL AMRULLOYEVICH

**GENDER YONDASHUV ASOSIDA O'SMIR YOSHDAGI
O'QUVCHILARNING O'Z-O'ZINI ADEKVAT BAHOLASH
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped4916 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ibraimov Xolboy

pedagogika fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponentlar:

Ibragimov Alamjon Amrilloevich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Sharifzoda Sardorbek O‘razboy tabib o‘g‘li

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/30.07.2024.Ped.165.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi 6-uy. Tel.: (99855)511-02-69; faks: (99855)511-02-69; e-mail: uzpfiti@umail.uz, uzpfiti@exat.uz)

Dissertatsiya bilan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqam bilan ro‘yxatga olingan). . (Manzil: 100736, Toshkent shahri, Furqat ko‘chasi 174-uy. Tel.: (99855)511-02-69; faks: (99855)511-02-69; e-mail: uzpfiti@exat.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____kuni tarqatildi.

(2025-yil «___» ___dagi ___ - raqamli reyestr bayonnomasi).

M.Quronov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi,

p.f.d., professor

O.U.Musurmonkulov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash kotibi,

p.f.f.d. (PhD)

Sh.Q.Mardonov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash qoshidagi

Ilmiy seminar raisi,

p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida shaxsning o'z-o'zini adekvat baholash qobiliyatini rivojlantirish, gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini tarkib toptirish hamda ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlashning kreativ modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Janubiy Koreyaning Incheon shahrida o'tkazilgan Butunjahon forumida qabul qilingan 2030-yilga qadar rivojlanish deklaratsiyasida "o'smir yoshlarda o'z-o'zini anglash ko'nikmasini tarkib toptirish, o'z-o'zini va mavjud imkoniyatlarini baholash ko'nikmalarini jadal rivojlantirish"¹ qayd etilgan bo'lib, o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini anglash qobiliyatini rivojlantirishda hayotiy vaziyatlarni imitatsiyalash, gender tamoyillariga muvofiq intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvni ta'minlashga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida va xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarida shaxsning o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ularni muvaffaqiyatli kelajagini ta'minlash, irodasini chiniqtirish, shuningdek, oila va ta'lim tashkilotlari hamkorligida o'smir yoshdagi o'quvchilarda ijtimoiy rollar, gender sifatlar, jinsga xos muloqot madaniyati, ijtimoiy munosabatlarda bag'rikenglik, tolerantlikni shakllantirish asosida o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bois, dunyoning gender madaniyati yuksak darajada taraqqiy topgan davlatlar tajribasi asosida o'smir-yoshlarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni kelgusida bajaradigan ijtimoiy rollarda muvaffaqiyatlarga erishishga o'rgatish, bu jarayonda ta'lim-tarbiyaning imkoniyatlaridan keng foydalanish va bu orqali jamiyatda sog'lom ijtimoiy munosabatlar yaratish vazifalari kundan-kunga ortib bormoqda.

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratilib, gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi ham jamiyat hayotining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarilgan. Jumladan, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda o'smir yoshdagi o'g'il va qiz bolalarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim oluvchilar tarbiyasida oila bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi ustivor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134 sonli farmoni qabul qilingan. Bu, o'z navbatida, gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda xorijiy va mahalliy tajribalarni integratsiyalash, ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda zamonaviy yondashuvlarni tadbiq etish, dars va sinfdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonlari imkoniyatlaridan samarali foydalanishga doir takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi.

¹ Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). 6p. 26 P.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son, 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5712-son, 2022-yil 11-maydagi “2022–2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134 sonli farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son, 2024-yil 21-iyundagi “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-232-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalash masalalariga oid turli yo‘nalish mutaxassisleri alohida e’tibor qaratib kelmoqdalar. Jumladan, respublikamiz olimlaridan M.L.Abdujabborova, M.Abdullayeva, M.E.Abdullayev, Sh.O.Aripov, Sh.A.Akramova, F.A.Akramova, R.X.Djurayev, O.Jamoldinova, X.Ibraimov, V.M.Karimova, N.Sh.Mullaboyeva, O.Musurmonova, N.M.Nagmetova, T.K.Narbayeva, N.Ortikov, R.G.Safarova, M.M.Tilavova, A.T.Tilegenov, X.M.Tojiboyeva, M.M.Umarova, N.D.Qosimova, M.Quronov, Z.M.Qurbonniyozova, N.I.Xalilova va B.X.Xodjayevlarning ishlarida o‘z ifodasini topgan.

MDHda ham o‘z-o‘zini baholash va gender tarbiya nazariyasi ko‘plab pedagoglar va pedagogik fikr namoyondalari tomonidan o‘rganilgan. Jumladan olimlaridan, A.I.Altunin, N.I.Andreyeva, E.A.Gapova, A.A.Derkach, Ye.V.Zinko, F.Ivanov, R.Konnell, Dj.Karpara, S.I.Kudinov, O.N.Molchanova kabilarning ishlari bunga misol bo‘la oladi.

Shaxsda o‘z-o‘zini baholash madaniyatini tarkib toptirish xarakteriga ko‘ra xorijlik olimlardan H.Andrade, A.Bandura, P.R.Boekaerts, D.Boud, G.T.L.Brown, L.R.Harris, R.Deakin-Crick, C.Dignath, G.Büttner, H.Langfeldt, H.W.Goodrich, J.A.Greene, D.T.Griffie, D.Kostons, E.Panadero, S.G.Paris, T.Sitzmann va B.J.Zimmermanlar ularni tarixiy tajriba, odob-axloq, o‘z-o‘zini anglash kabi substansional negizlarga ajratganlar.

O‘smir yoshdagilarni tarbiyalash, o‘z-o‘zini anglash va gender masalalari yuzasidan turli soha olimlari tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan bo‘lsa-da, biroq gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini adekvat

baholash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini ilmiy asoslash hamda maxsus tadqiq etish zaruratining saqlanib qolayotganligi bu borada chuqur ilmiy yondashuvlar, yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyoj yuzaga kelganligini ko'rsatmoqda.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida amalga oshirilgan FZ-2016-0910202206 – davlat qayd raqami bilan ro'yxatdan o'tgan “Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalari” nomli fundamental tadqiqot loyihalari (2017-2020 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarning o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarning o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirish zaruriyatini asoslash hamda shaxsda o'z-o'zini baholash ko'nikmasini tarkib toptirishning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish;

o'smir yoshdagi o'quvchilarning o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini tarbiyalashda gender yondashuvdan foydalanishning pedagogik-psixologik o'ziga xos xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarning o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini tarbiyalashning pedagogik ish shakllari va metodlari imkoniyatlarini asoslash hamda jarayonning indikativ modelini ishlab chiqish;

gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarining rivojlanganligini baholash mezon ko'rsatkichlarini aniqlash, ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularning samaradorlik darajasini belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon tanlab olinib, tajriba-sinov ishlariga Buxoro, Namangan viloyatlari va Toshkent shahridagi umumiy o'rta ta'lim maktablaridan 1151 nafar o'quvchi jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga oid ilmiy, metodik, pedagogik adabiyotlar, manbalar, o'quv ishlanmalari, darsliklarni, milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy o'rganish, kuzatish, suhbat, anketa, tajriba-sinov, natijalarni matematik statistik tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini shakllantirishda ota-onalar va pedagoqlarning munosabati o'smir yoshdagi o'quvchilarni shaxsiy kamoloti, emotsional intellekti va mustaqil fikrlash salohiyatini uyg'un rivojlantiruvchi milliy

tarbiya usullari (nasihat, ibrat, urf-odatlar) va axloqiy dilemmalarni rolli o‘yinlar senariylariga gender yondashuv elementlarini kiritish asosida takomillashtirilgan;

o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini shakllantirish mazmuni kognitiv (bilim), emotsional (his-tuyg‘u) va ijtimoiy (munosabat) qadriyatlarga ko‘ra integratsiyalangan mavzularni shaxsiy pozitsiyani tarkib toptirish asosida interaktiv tarbiya metodikalariga tatbiq etish orqali takomillashtirilgan;

o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish modeli psixodiagnostik metodikalar (Dembo-Rubinshteyn shkalasi, “Men kimman?” anketa-testlari, «O‘z-o‘zini baholash barometri»)ni “Men” konsepsiyalari bilan bog‘lab, “Tarbiya” fani mazmuniga axloqiy-ma’naviy mazmundagi tarbiyaviy mavzularni kiritish asosida takomillashtirilgan;

o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash indikatorlar tizimini shakllantirish yondashuvi ulubiy jihatdan o‘smir yoshda shaxsiy maqsad qo‘yish salohiyati rivojlanganligining inert (o‘zini baholash passiv, ko‘proq tashqi bahoga tayanadi), vaziyatli (jamoat fikri ta’siri kuchli, tashqi sharoitga moslashishda sezilarli tayanish), adekvat (shaxsiy imkoniyatlarni to‘g‘ri va real baholay olish) va refleksiv (o‘z xatti-harakatlari, qarorlari va natijalarini chuqur tahlil qila olish) darajalar kesimida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish tendensiyalari, bu jarayonda gender yondashuvdan foydalanishning didaktik imkoniyatlari aniqlangan;

gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini tarviyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon va unga ta’sir etuvchi omillar hamda pedagogik-psixologik yo‘nalishlari belgilab berilgan;

gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini tarbiyalash imkonini beruvchi usullar aniqlangan va tasniflangan;

o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalari rivojlanganligini gender yondashuv asosida aniqlash mezon ko‘rsatkichlari hamda ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun “Mening ma’naviy hamrohim” nomli o‘quv uslubiy qo‘llanma nashr qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq etilayotgan muammoga ilmiy-pedagogik yondashuv asosida tadqiqot maqsadi, obykti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba-sinovga jalb etilgan umumta’lim maktablari soni talab darajasida ekanligi, tajriba-sinov natijalarida statistik ma’lumotlarga tayanilganligi va matematik-statistik jihatdan qayta ishlanganligi hamda mavzu yuzasidan chop etilgan ishlar mazmuniga ko‘ra tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik ish shakllari, usullari va yo‘nalishlarining tizimlashtirilganligi, o‘z-o‘zini anglash,

“Men” konsepsiyasi va adekvat baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan usullar, metodlar va texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari aniqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon va unga ta’sir etuvchi omillarning aniqlanganligi, didaktik ishlanmalar, ijtimoiy trening elementlarining o‘quv topshiriqlari bilan bog‘langanligi va tizimlashtirilganligi, dars va darsdan tashqari pedagogik jarayonga tatbiq etishga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini shakllantirishda ota-onalar va pedagoglarning munosabati o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni shaxsiy kamoloti, emotsional intellekti va mustaqil fikrlash salohiyatini uyg‘un rivojlantiruvchi milliy tarbiya usullari (nasihat, ibrat, urf-odatlar) va axloqiy dilemmalarni rolli o‘yinlar senariylariga gender yondashuv elementlarini kiritish asosida takomillashtirishga oid oid takliflaridan FZ-2016-0910202206 – davlat qayd raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o‘quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalari” nomli fundamental tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2024-yil 26-noyabrdagi 01/15-09/185-sonli ma’lumotnomasi). Natijada o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini shakllantirishda ota-onalar va pedagoglarning munosabati milliy tarbiya usullari va axloqiy dilemmalarni rolli o‘yinlar ssenariylariga gender yondashuv elementlarini kiritish asosida takomillashtirishga erishilgan;

o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini shakllantirish mazmuni kognitiv (bilim), emotsional (his-tuyg‘u) va ijtimoiy (munosabat) qadriyatlarga ko‘ra integratsiyalangan mavzularni shaxsiy pozitsiyani tarkib toptirish asosida interaktiv tarbiya metodikalariga tatbiq etish orqali takomillashtirishgaga oid mualliflik g‘oyalaridan 2024-yil 21-iyundagi “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-232-son Qarorning 2-ilovasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yil 11-dekabrdagi 03-28-3731-sonli ma’lumotnomasi). Natijada o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini shakllantirish mazmuni integratsiyalangan mavzularni shaxsiy pozitsiyani tarkib toptirish asosida interaktiv tarbiya metodikalariga tatbiq etish orqali takomillashtirishga erishilgan;

o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish modeli psixodiagnostik metodikalar (Dembo-Rubinshteyn shkalasi, “Men kimman?” anketa-testlari, “O‘z-o‘zini baholash barometri”)ni “Men” konsepsiyalari bilan bog‘lab, “Tarbiya” fani mazmuniga axloqiy-ma’naviy mazmundagi tarbiyaviy mavzularni kiritish asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida amalga

oshirilgan FZ-2016-0909111822 – “Darsliklar va o‘quv adabiyotlari mazmuniga Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini singdirish orqali o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmlari” nomli fundamental tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2024-yil 26-noyabrdagi 01/15-09/185-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish modeli “Tarbiya” fani mazmuniga axloqiy-ma’naviy mazmundagi tarbiyaviy mavzularni kiritish asosida takomillashtirishga erishilgan;

o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash indikatorlar tizimini shakllantirish yondashuvi ulubiy jihatdan o‘smir yoshda shaxsiy maqsad qo‘yish salohiyati rivojlanganligining inert (o‘zini baholash passiv, ko‘proq tashqi bahoga tayanadi), vaziyatli (jamoat fikri ta’siri kuchli, tashqi sharoitga moslashishda sezilarli tayanish), adekvat (shaxsiy imkoniyatlarni to‘g‘ri va real baholay olish) va refleksiv (o‘z xatti-harakatlari, qarorlari va natijalarini chuqur tahlil qila olish) darajalar kesimida takomillashtirishga oid tavsiyalardan “2022–2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur”ni ijrosini ta’minlashda amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yil 11-dekabrda 03-28-3731-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash indikatorlar tizimini shakllantirish yondashuvi ulubiy jihatdan o‘smir yoshda shaxsiy maqsad qo‘yish salohiyati rivojlanganligining inert, vaziyatli, adekvat va refleksiv darajalar kesimida takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 5 tasi respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda, xalqaro konferensiyalarda 6 ta, Respublika konferensiyalarda 5 ta tezis va 1 ta qo‘llanma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 157 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini tarbiyalash jarayonining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida gender yondashuv

asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini tarbiyalash – ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida asoslangan, o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda gender yondashuvdan foydalanishning pedagogik-psixologik o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek shaxsda o'z-o'zini baholash ko'nikmasini tarkib toptirishning rivojlanish tendensiyalari o'rganilgan.

Bugungi globallashuv va axborot oqimlari davrida yosh avlodning o'z shaxsiy imkoniyatlarini real baholash, o'zini tan olish va ijtimoiy hayotda to'g'ri pozitsiya egallash ko'nikmalari ijtimoiy barqarorlikning muhim omili hisoblanadi. O'smir yosh davri shaxsning o'zligini anglash va "Men" konsepsiyasi shakllanadigan davr bo'lib, bunda o'z-o'zini adekvat baholash muhim psixologik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Gender yondashuv asosida bu jarayonning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati yanada kengroq bo'lib, o'g'il va qiz o'quvchilarning ruhiy-emotsional rivojlanishidagi farqlarni inobatga olish, teng huquqli sharoit yaratish va gender stereotiplarni bartaraf etish bilan chambarchas bog'liqligi yoritilgan.

O'z-o'zini baholash – o'smirning o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari, shaxsiy sifatlariga bo'lgan obyektiv munosabatini ifodalovchi tushuncha. O'z-o'zini baholash shaxsning bilish faoliyati, atrofdagi odamlar va moddiy borliqqa munosabatining ifodasi hamdir. O'g'il va qiz bolalar o'zlarining ruhiy sifatlarini baholashga nisbatan turlicha munosabatda bo'ladilar. O'g'il bolalar o'zlarini kuchli, qo'rqmas, jasur deb biladilar. Qizlar esa o'zlariga ko'proq tanqidiy munosabatda bo'ladilar. O'g'il va qiz bolalarning har birida yetuklik maromi turlichadir.

Shunday qilib, o'z-o'zini baholash – bu o'z-o'zini anglashning namoyon bo'lish shakllaridan biri, "men" konsepsiyasining tarkibiy qismi, shaxsning o'zi haqidagi g'oyasini affektiv baholash hisoblanadi. O'z-o'zini baholashning rivojlanishi insonning butun hayoti davomida sodir bo'ladi va bu o'smirlilik davridagi o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari insonning butun hayoti davomida amal qiladi.

Ushbu bobda o'smir yosh davri inson shaxsiy kamolotining eng mas'uliyatli bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda o'quvchining o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalari, ya'ni shaxsiy imkoniyatlarini real baholay olish, kuchli va zaif jihatlarini anglash, o'z faoliyatini tahlil qilib xulosa chiqarish qobiliyati shakllana boshlaydi. Ushbu jarayon ota-onalar va pedagoglarning munosabati hamda ular qo'llaydigan pedagogik vositalar orqali yanada samarali bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, oilada ota-onaning munosabati o'smirning o'z-o'zini baholashini shakllantiruvchi eng muhim tarbiyaviy ta'sir omillaridandir. Shuning uchun ham, o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini shakllantirishda ota-onalar va pedagoglarning munosabati o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini shakllantirishda ota-onalar va pedagoglarning munosabati quydagi ta'sir jihatlari bilan ajralib turadi: ota-onaning mehr-muhabbati, farzandiga ishonchi va rag'batlantiruvchi so'zlari o'smirda o'z qadr-qimmatini anglash hissini uyg'otadi; ota-onaning ortiqcha tanqidi o'z-o'zini past baholashga olib kelishi mumkin. Shu bois, ularning bahosi adolatli va konstruktiv bo'lishi; ota-onaning farzandi bilan samimiy muloqoti uning mustaqil qaror qabul qilish va fikr bildirish salohiyatini rivojlantirishi kabi ijtimoiy tarbiyaviy munosabatlar tizim muhimdir. Shu o'rinda, ta'lim muassasasida pedagoglarning munosabati ham

o'smirning shaxsiy kamolotida, uning yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Bunda, o'qituvchi har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olib, uning o'z-o'zini baholash imkoniyatlarini kengaytirishi, o'quvchilarni mustaqil fikr bildirish, savol berish, tanqidiy mulohaza yuritishga imkon beruvchi o'quv jarayoni o'quvchilarda adekvat baholash ko'nikmalarini kuchaytirishi, o'quv mashg'ulotlarida o'z-o'zini tahlil qilish, xatolarni anglash va ularni tuzatish imkoniyatini berish o'quvchining emotsional intellekti va mustaqil fikrlashini rivojlantirish kabi ta'sir imkoniyatlari orqali tarbiyalash lozimligi masalalari bayon qilingan.

O'smir yoshdagi o'quvchilarning o'z-o'zini baholash jamiyatda shaxsiy insoniy munosabatlarni boshqarishning o'ziga xos majmui. O'z-o'zini baholash jarayonida o'zaro bir-birini to'ldiruvchi quyidagi faoliyatlarni ajratish mumkin: 1. O'z-o'zining bahosi boshqalar qo'ygan baho bilan mutanosib bo'lishini e'tiborga olish; 2. O'smirning atrofdagilar e'tirofiga ko'rsatadigan faol munosabati; 3. O'zaro aloqadorlikda baholash – o'smirlar bir-birlarining xatti-harakatlarini o'zaro hamkorlikda baholashlari; 4. Shaxsiy ishlarni baholash, o'zlarining xatti-harakatlariga munosabat bildirish va boshqalarning munosabati asosida qayta baholash; 5. Shaxsiy tanqid va tengdoshining tanqidiy qarashlari asosida qo'yilgan baholarni qiyoslash; 6. O'smirlarning o'z ishlari va o'rtoqlarining ishlariga qo'yilgan baholarini taqqoslash. Shaxsning individual va shaxsiy rivojlanishining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bu o'z-o'zini baholashdir. Bu shaxsning boshqalar bilan munosabatlarining yo'nalishi va xarakterini, o'ziga nisbatan talabchanligi, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarga munosabatini belgilashning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. O'smir yoshdagi o'quvchilarning o'z-o'zini munosib baholashi uzoq vaqt davomida saqlanib qoladi, bu uning adekvatligi va ijobiyliги buzilgan taqdirda o'zgarishi uchun ba'zi shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Adekvat o'z-o'zini baholash, ya'ni subyektning o'ziga nisbatan aniq, barqaror munosabatini shakllantirish jarayoni ta'lim, tarbiya va rivojlanish muammolari bilan bevosita bog'liq.

Pedagogika ensiklopediyasida “Adekvatlik (lotincha *adaequatus* – tenglashgan, mos, aynan bir, o'xshash) – bilish nazariyasida narsa va hodisalarning xossa va aloqalarini ularning obyektiv mazmuniga muvofiq tarzda tanlash” tarzida talqin qilingan. Inson ongi obyektiv borliqni ijtimoiy amaliyot asosida adekvat aks ettira boradi. Adekvatlik darajasi, ya'ni obyektning aks ettirishning aniqligi, chuqurligi va to'laligi haqidagi masala nisbiy va absolyut haqiqatlar bilan bilimning to'g'riligi, mezoni o'rtasidagi o'zaro munosabat muammosiga bog'liq.

Adekvat o'z-o'zini baholash – subyektga o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishga, o'zining kuchli tomonlarini turli qiyinchilikdagi vazifalar va boshqalarning talablari bilan to'g'ri bog'lash imkonini beradi. Salbiy o'z-o'zini baholash – o'z-o'zini baholashning past darajasi, o'zini o'zi anglash hissi, shaxsga nisbatan salbiy munosabatni shakllantiradi.

O'z-o'zini baholashda haqiqiy “Men” obrazini ideal “Men” obrazi bilan, ya'ni men qanday odam bo'lishni xohlayman, degan g'oya bilan solishtirish kerak. Bunda haqiqiy shaxsning ideal bilan mos kelishining yuqori darajasi pedagogik-psixologik rivojlanishning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

O‘z-o‘zini adekvat baholash jarayonida asosiy tarkibiy qismlar, masalan, maqsadni belgilash, ideal o‘z-o‘zini aks ettirish yetarli darajada shakllangan bo‘lishi kerak. O‘z-o‘zini baholashning quyidagi turlari mavjud: umumiy va shaxsiy. Shaxsiy o‘z-o‘zini baholash umumiy asosda, uning tarkibida “Men idealman”, “mulohaza yuritish” va “maqsadni belgilash” kabi tarkibiy qismlarni ishlab chiqish va rivojlantirish tufayli shakllanadi. “Men” ideali insonning qadriyat yo‘nalishlarini shakllantirish manbai bo‘lib xizmat qiladi, o‘z kelajagi haqidagi g‘oyalarni ochib beradi. Haqiqiy va ideal sifatlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik “men-ideal” va “men-real” o‘rtasidagi qarama-qarshilikning bir turi sifatida qaraladi.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash va o‘z-o‘zini anglash axloqiy-hissiy xususiyatga ega. Atrofdagi kattalar orasida eng yorqin ijobiy bahoni o‘zaro hurmat, ishonch, mehrni his qiladigan o‘smirlar oladi. Har xil faoliyat turlarida o‘smir yoshdagi o‘quvchining o‘z-o‘zini baholashini taqqoslash natijasida uning obyektivligini ko‘rish mumkin (“o‘zini yuqori baholash”, “adekvat baholash”, “o‘zini past baholash”).

Yuqoridagilardan biz gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash qobiliyatini rivojlantirishning xususiyatlarini ajratib ko‘rsatamiz: umumiy ijobiy o‘z-o‘zini baholash; boshqalar tomonidan o‘z-o‘zini baholashga tanqidiy munosabatning paydo bo‘lishi va tengdoshlar ta’siri; shaxsning jismoniy imkoniyatlari, malakalari, axloqiy fazilatlari, kechinmalari va ayrim psixik jarayonlardan xabardorlik omillariga to‘xtalgan.


O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga gender yondashuvni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: har bir o‘smir shaxsiga individual yondashgan holda ta’lim-tarbiya berish; ularning o‘ziga xos imkoniyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirish yo‘llarini tanlash.

Ilk o‘smirlik davri 10 yoshdan boshlanib, 14 yoshgacha davom etadi. Katta o‘smirlik yoshi esa 14-16 yosh davriga to‘g‘ri keladi. Aksariyat psixologlar o‘z tadqiqotlarida o‘smirlik davrining murakkab, ziddiyatlarga boy davr ekanligini ta’kidlaganlar. O‘smirlik davri uchun xarakterli xususiyatlardan biri o‘zini kattalardek his etishidir. Bu davrda o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini baholash rivojlanadi. O‘smir o‘ziga shaxs sifatida qiziqish bildirib, layoqatlari va imkoniyatlarini yuqori baholaydi.

Ruhij-ijtimoiy muvofiqlikning vujudga kelishi o‘smirning o‘z-o‘zini anglashini ifodalaydi. Bu 3 ta asosiy vazifa bilan ajralib turadi: bolalikdan o‘tmishga aylanishi va o‘z kelajagini tasavvur qilish loyihasiga ega bo‘lish hamda o‘smirning shaxsiy o‘zligini anglashning shakllanishiga erishish; o‘zining ota-onasidan farqli jihatlarini anglashga intilishning tarkib topishi; o‘smir shaxsining o‘zligini anglashini ta’minlaydigan qadriyatlar tizimini amalga oshirish.

Shu o‘rinda bir o‘smirlik davri inson shaxsiy rivojlanishida keskin psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlar yuz beradigan bosqich ekanligiga to‘talib o‘tish lozimdir. Bu davrda shaxs o‘zligini anglash, mustaqil qaror qabul qilish, his-tuyg‘ularni boshqarish va atrofdagilar bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantira boshlaydi. Shu sababli o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda shaxsiy kamolot, emotsional intellekt va mustaqil fikrlashni uyg‘un rivojlantirish pedagogika va psixologiyaning dolzarb vazifalaridan biridir. O‘smir shaxsiy kamoloti-bu o‘smirning o‘zini anglash, ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga intilish jarayonidir deb

takidlashga asos bo'ladi. Bunda o'smirlar o'zlarida milliy qadriyatlar va jamiyat me'yorlariga nisbatan munosabati shakllanadi, o'z harakatlari va qarorlarining oqibatini tushunish imkoniyati oshib boradi, shaxsiy orzu-intilishlarni amalga oshirish uchun mustaqil rivojlanish yo'lini tanlash qobiliyati shakllanishi bilan ajralib turadi. Ushbu rivojlanish jarayonida o'smirda emotsional intellekt shakllanib borishi bilan ajralib turadi. Gender o'z-o'zini anglash – shaxsning integral tavsifi bo'lib, o'zida shaxsiy o'zligi, “Men” konsepsiyasi, gender stereotiplar, gender ustanovkalar, gender xulq-atvor, gender o'z-o'zini anglash va gender rollarni mujassamlashtiradi.



1-rasm. O'smir yoshdagi o'quvchilarning o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini tarkib topish jarayoni

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda oila – ta'lim va jamiyat rivojining yangi sharoitlarida yaxlit pedagogik jarayonning yetakchisi sifatida gavdalanadi. Oilada o'smirlarda o'z-o'zini obyektiv baholashga o'rgatish majmuaviy, tabiiy tavsif kasb etadi. Shuning uchun ham o'quvchilarni o'z-o'zini adekvat baholash jarayoni ijtimoiy munosabatlarda sinovdan o'tadi. Chunki, ularning ijtimoiy qadriyatlar asosida shakllanishi alohida ahamiyatga egaligi bilan farqlanadi: bunda, jamoadagi tengdoshlar bilan konstruktiv munosabatlar, o'zaro hurmat va hamkorlik, tanqidni qabul qilish va uni adekvat tahlil qilish, ijtimoiy javobgarlik va empatiya hissini rivojlantirish. Bu jarayon o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi, o'z-o'zini baholashni obyektiv mezonlarga asoslash imkonini beradi.

Shuningdek, o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini baholash ko'nikmasini tarkib toptirishda oila bilan hamkorlikda: o'smirlar muloqoti rivojini barcha kengayuvchi sohalari qarindoshlik, o'quv, mehnat, dam olish va boshqa munosabatlarga yo'naltiriladi; o'smir yoshdagi o'quvchilarga jinslarning o'zaro munosabatlari va kelgusi hayotdagi ijtimoiy munosabatdan saboq beradi; o'smir yoshdagi o'quvchilarga o'quv va mehnat faoliyati, jamiyat oldidagi javobgarlik, jamoatchilik va o'zaro yordam berish talablariga munosabatni shakllantiradi;

jamiyatning dunyoviy, mafkuraviy, axloqiy, huquqiy qadriyatlariga ongli munosabat elementlarini tarbiyalaydi; o‘smir yoshdagi o‘quvchining umumiy fuqarolik, ta’lim-tarbiya va mehnat majburiyatlarini bajarishda mas’uliyatli munosabatni amalga oshiradi; pedagog va ota-ona hamkorligi natijasida o‘smirda xarakter, ijtimoiy mazmun, o‘zini baholash va tanqid qilish darajasi shakllanadi, bo‘sh vaqtni o‘tkazish strukturasi va mazmuni modellashtiriladi.

Dissertatsiyaning **“Gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini tarbiyalashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon va unga ta’sir etuvchi omillar, gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik ish shakllari va metodlari, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmasini rivojlantirishning indikativ modeli tadqiq etilgan.

Shaxsning o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishda yosh davrlari ichida aynan o‘smirlik davri boshqa davrdan ajralib turadigan qiyin davr hisoblanadi. Bu davrda o‘smirlarni tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuning uchun o‘smirlar bilan munosabatlarda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash shaxslararo munosabatda anglashmovchilikni vujudga keltirmaydi, ularning oilasi, sinf jamoasi o‘rtasida iliq psixologik iqlimni yaratadi. Bu yoshda o‘smir organizmida, uning ruhiy dunyosida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Unda yangi qiziqish, mayl va ehtiyojlar vujudga kela boshlaydi.

Ushbu bobda shaxs bo‘lib shakllanish fundamenti bu davrda yakun topib, dunyoqarashining yuqori bosqichlariga intilish rivojlanadi. O‘zini-o‘zi anglash “Men” belgisi (simvoli), ota-ona hayotidan, do‘stlari, sotsiumda o‘z o‘rnini egallashga yordam beradi. Shuning bilan birga, hayot mazmuniga baho berishda, qadriyatlar izlash hodisalarini ham izlab topishga harakat qiladi va bu jarayon orqali “Men” belgisiga taalluqli bo‘lgan ijtimoiy belgilar, ijtimoiy muhitni o‘z tasavvurida shakllantiradi.

O‘smirlarning o‘z-o‘zini baholash darajasi, “Men-konsepsiyasi” va shaxsiy xususiyatlarini aniqlashda quyidagi psixodiagnostik metodikalar samarali qo‘llanadi: Dembo–Rubinshteyn shkalasi -bu psixodiagnostik metodika bo‘lib, u o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash darajasi va o‘ziga qo‘ygan ideal talablari o‘rtasidagi farqni aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu metodika ayniqsa o‘smir yoshdagi o‘quvchilar bilan ishlashda samarali hisoblanadi, chunki bu davrda ularning “Men-konsepsiyasi” shakllanish bosqichida bo‘ladi. Bunda, o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlari, muvaffaqiyat va intilishlarini baholash darajasini aniqlashda qo‘llanadi. Natijada “ideal Men” va “real Men” orasidagi farqni ko‘rsatib berishi bilan ajralib turadi.

“Men kimman?” anketa-testlari-bu o‘quvchilarning o‘zini anglash, shaxsiy identifikatsiya va “Men-konsepsiyasi” darajasini aniqlash uchun mo‘ljallangan psixodiagnostik metodika hisoblanadi. Mazkur test orqali o‘smirlarning o‘ziga nisbatan fikrlari, ijtimoiy rollari, qadriyatlari va shaxsiy pozitsiyasi o‘rganiladi. Ya’ni,

o'quvchining o'zini anglash jarayonida shaxsiy pozitsiyalarni ochib beradi. Javoblar orqali o'quvchining ijtimoiy rol va qadriyatlarga nisbatan qarashlari aniqlanadi.

«O'z-o'zini baholash barometri»-bu o'quvchilarning o'ziga nisbatan munosabatini, shaxsiy qadrlash darajasini va adekvat baholash qobiliyatini aniqlashga mo'ljallangan psixodiagnostik metodikadir. U o'smir yosh davrida shaxsning o'zini anglash va "Men-konsepsiyasi" shakllanishini o'rganishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham o'quvchilarning ijobiy va salbiy his-tuyg'ular fonida o'z-o'ziga munosabatini belgilaydi. Barometr natijalari orqali o'zini qadrlash, o'zini tanqid qilish va o'zini rag'batlantirish darajalari baholanishi bilan ahamiyatligi yoritib o'tilgan.

Shuningdek, o'smirlar atrofdagilarga nisbatan negativ baho berishga ham moyildir, odamlarni kiyinishi, tashqi ko'rinishi, o'zini tutishi, xatti-harakatlariga nisbatan munosabatlarini bildiradi. O'zining fikri bilan ish tutishga, o'ziga nima ma'qul bo'lsa shuni amalga oshirishga harakat qiladi. O'smirlar ijtimoiylashuvining qiyinchiliklari uch xil ko'rinishga ega: bu o'ziga yuqori baho berish (qahramonlik ko'rsatish, hammaga tanilish)ni xohlaydi, lekin ijtimoiy mavqei pastligi bilan; o'smir fikri bilan ota-onaning eskicha fikrlashi, madaniyati to'g'ri kelmasligi (ota-onaga o'smir yoshida ham bola bo'lib ko'rinishi) lekin o'smir psixofiziologik jihatdan katta bo'lib qolganligi bilan; tengdoshlari fikri bilan o'smir o'zining mustaqil qadriyatlarini to'g'ri kelmasligi bilan, ifodalanadi.

Gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda bir qator texnologiyalardan foydalanish talab qilinadi. Ular: 1. Turli didaktik o'yinlarni tashkil etish va o'tkazish; 2. O'quv mashqlarini tashkil etish; 3. Axloqiy mavzudagi davra suhbatlarini tashkillashtirish; 4. Rolli o'yinlardan foydalanish.

Gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalarining o'ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: o'smir yoshdagi o'quvchilar bilan guruhli hamda individual ish shakllarini tashkil qilish; o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash jarayoniga nisbatan faoliyatli yondashuvni amalga oshirish; o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini amaliy jihatdan yo'naltirish; pedagogik jarayonlarning o'yin va ijodiy xarakter kasb etishini ta'minlash; turli shakldagi muloqot, munozara va dialog vaziyatlarini vujudga keltirish; mashg'ulotlarda o'smirlik davrining o'ziga xos murakkabliklarini hisobga olish, yosh davrlariga oid mavjud bilimlari va tajribalaridan foydalanish; o'smir yoshdagi o'quvchilarning hissiy kechinmalarini o'z-o'zini baholashga safarbar etish; o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda jarayon subyektlarining tahliliy faoliyatlariga keng yo'l ochish omillari bayon qilingan.

Gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirish **usullari** quyidagilardan iboratligi pedagog va psixologlar tomonidan e'tirof etildi: 1. To'g'ridan-to'g'ri tanbeh berish; 2. Nutqiy ta'sirga bepisandlik muloqot odobiga rioya qilish; 3. E'tibor qaratish; 4. Ijobiy sifatlarni bo'rttirib ko'rsatish; 5. Ijobiy baho beruvchi fikrlarni maqsadga yo'naltirilgan holda bayon etish. Ijobiy fikr bayon qilish shakllari quyidagicha

bo'lishi mumkin: an'anaviy tarzda o'smirni olqishlovchi fikrlarni bayon qilish; o'smirning avvalgi muvaffaqiyatlarini eslash; qo'llab-quvvatlash va qoniqish hissini bayon qilish; olqishlovchi fikrlarni takrorlash kabilar. 6. Rollarni almashtirish; 7. Hazil-mutoyiba; 8. Hamkorlikka undash; 9. Qisman kelishish; 10. O'z-o'zini jazolash; 11. Ishonch.

Gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini tashkil etishda quyidagi tamoyillarning ustuvor o'rin tutishi maqsadga muvofiqligi aniqlandi: 1. Didaktik maqsadning aniqligi; 2. Mashg'ulotlarning uzluksiz, izchil, tizimli hamda maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilishi; 3. O'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini anglash qobiliyatini rivojlantirishda ta'lim va tarbiya birligi; 4. Mavjud sharoit hamda subyektlarning axloqiy faoliyatga nisbatan yondashuvlariga e'tibor qaratish; 5. O'smir yoshdagi o'quvchilarning yosh psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olish; 6. O'smir yoshdagi o'quvchilarning shaxsiy layoqat va qobiliyatlarini faol namoyish etishlariga erishish; 7. Maktab va oila o'rtasidagi hamkorlikni qaror toptirish; 8. O'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarning dialektik hamda dinamik xususiyat kasb etishi.

Gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirish quyidagi omillar asosida ijobiy kechadi:

1. Obyektiv omil (shart-sharoitlar): a) o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoitning yaratilganligi; b) o'quv mashg'ulotlari jarayonining zamonaviy texnik jihozlar hamda axborot texnologiyalari bilan qurollantirilganligi; v) o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga oid maxsus adabiyotlar (o'quv qo'llanmalari, metodik tavsiyanomalar) bilan ta'minlanganlik darajasi.

2. Subyektlar tomonidan bildirilayotgan munosabat (subyektiv omillar): a) maktabda faoliyat yuritayotgan pedagoglar tomonidan gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat ekanligining anglab yetilishi; b) maktab rahbariyati tomonidan bu borada yetarli shart-sharoit yaratib berilayotganligi; v) pedagoglar tomonidan gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilayotganligi; g) pedagoglarning gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat mohiyatidan xabardor ekanliklari; d) pedagoglarda o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda gender yondashuvdan foydalanish ko'nikmalarining mavjudligi; j) pedagoglar tomonidan gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirish borasida tajribalarning to'planib umumlashtirilganligi; z) pedagoglarning gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga nisbatan ijodiy yondashuvlari.


O'smir yoshdagi o'quvchilarda o'z-o'zini adekvat baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning gender yondashuv asosida tashkil etilishi ijobiy samara bera olishi tadqiqot jarayonida aniqlandi.

